

ASOSSIZ ORTTIRILGAN BOYLIKNI QAYTARISHNING FUQAROLIK- HUQUQIY MEXANIZMLARI (O‘ZBEKISTON AMALIYOTI MISOLIDA)

Sidiqov Xondamir Shuhratjon o‘g‘li

*O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi magistranti*

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida asossiz orttirilgan yoki saqlanib qolgan boylikni qaytarish majburiyatining fuqarolik-huquqiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur majburiyatning huquqiy tabiati va vujudga kelish shartlari yoritiladi. Boylikning orttirilganligi, boshqa shaxs hisobidan yuzaga kelganligi hamda huquqiy asosning mavjud emasligi qaytarish majburiyatining asosiy shartlari sifatida ko‘rsatiladi. Amaliyotda uchraydigan noto‘g‘ri bank o‘tkazmalari, majburiy ijro jarayonidagi ortiqcha undiruvlar va bekor qilingan shartnomalar bilan bog‘liq holatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Fuqarolik kodeksida belgilangan istisnolar va ularning huquqiy ahamiyati ochib beriladi. Maqola xulosalari asossiz boylikni qaytarish institutini amaliyotda to‘g‘ri qo‘llashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: asossiz orttirilgan boylik, qaytarish majburiyati, fuqarolik huquqi, huquqiy asos, bank o‘tkazmalari, majburiy ijro, shartnoma bekor qilinishi.

Аннотация: В статье анализируются гражданско-правовые механизмы возврата неосновательно приобретённого или сбережённого имущества в Республике Узбекистан. Рассматриваются правовая природа данного обязательства и условия его возникновения. Показано, что основанием для возврата являются приобретение имущества, получение его за счёт другого лица и отсутствие правового основания. Анализируются типичные ситуации судебной и банковской практики, включая ошибочные банковские переводы и излишние взыскания в процессе исполнения. Отдельное внимание уделяется предусмотренным Гражданским кодексом исключениям. Выводы статьи направлены на обеспечение правильного применения института неосновательного обогащения.

Ключевые слова: неосновательное обогащение, обязательство по возврату, гражданское право, правовое основание, банковские переводы, принудительное исполнение, недействительный договор.

Abstract: The article examines the civil-law mechanisms for the restitution of unjustly acquired or retained property in the Republic of Uzbekistan. It focuses on the legal nature of the restitution obligation and the conditions for its emergence. The study identifies acquisition of property, acquisition at the expense of another person, and absence of legal

grounds as key requirements for restitution. Typical cases from judicial and banking practice, including erroneous bank transfers and excessive enforcement recoveries, are analysed. Statutory exceptions to the restitution obligation are also considered. The findings aim to support the proper application of unjust enrichment rules in practice.

Keywords: *unjust enrichment, restitution obligation, civil law, legal basis, bank transfers, enforcement proceedings, invalid contract.*

Oldingi bandda O‘zbekiston Respublikasida asossiz orttirilgan boylikni qaytarish institutining normativ-huquqiy asoslari va ularning xalqaro standartlarga mosligi tahlil qilingan edi. Endilikda mazkur institutning nazariy va normativ asoslaridan kelib chiqib, uning amaliy mexanizmlarini ochib berish, ya’ni asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyati qachon va qanday shartlarda vujudga kelishini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu majburiyatning paydo bo‘lish shartlarini to‘g‘ri belgilash fuqarolik-huquqiy himoya vositalarini samarali qo‘llash imkonini beradi. Shu bois mazkur bandda asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyatining huquqiy tabiati va uning vujudga kelish shartlari O‘zbekiston amaliyoti nuqtai nazaridan yoritiladi.

Asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyati fuqarolik huquqida o‘ziga xos mustaqil huquqiy institut sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur majburiyat shartnomaviy majburiyatlar sirasiga kirmaydi, chunki u taraflar o‘rtasida tuzilgan bitimga emas, balki huquqiy asos bo‘lmagan mulkiy holatning yuzaga kelishiga bog‘liq holda vujudga keladi. Shu bois asossiz boylikni qaytarish majburiyatini shartnomaviy munosabatlarning buzilishi natijasida yuzaga keladigan javobgarlik bilan tenglashtirish mumkin emas. Shuningdek, ushbu majburiyat belgilangan majburiyatlardan ham farq qiladi. Belgilangan majburiyatlarda huquqbuzarlik, ayb va zarar yetkazish omillari muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyatida ayb omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi. Bu yerda asosiy e’tibor huquqiy asos yo‘qligi natijasida vujudga kelgan mulkiy nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratiladi. Demak, mazkur institut javobgarlik chorasi emas, balki mulkiy muvozanatni tiklashga xizmat qiluvchi huquqiy mexanizm hisoblanadi⁵¹.

Ilmiy adabiyotlarda asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyati restitutsion xarakterga ega mustaqil majburiyat sifatida baholanadi. Uning asosiy vazifasi bir shaxs hisobidan asossiz ravishda orttirilgan boylikni huquqiy muvozanatni tiklash maqsadida qaytarishdan iborat. Aynan shu jihati bilan mazkur institut shartnomaviy va belgilangan majburiyatlardan ajralib turadi hamda fuqarolik huquqida alohida ahamiyat kasb etadi.

⁵¹ Rahmonqulov, H.R. Fuqarolik huquqi. Majburiyat huquqi. Toshkent, 2010. 312–320-b.

Asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyatining vujudga kelishi fuqarolik huquqida muayyan shartlarning birgalikda mavjud bo'lishi bilan bog'liq. Amaldagi huquqiy yondashuvga ko'ra, mazkur majburiyat paydo bo'lishi uchun boylikning orttirilganligi, ushbu boylik boshqa shaxs hisobidan olinganligi hamda uni olish uchun huquqiy asos mavjud emasligi aniqlanishi lozim. Ushbu shartlardan birortasi mavjud bo'lmagan taqdirda, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyati vujudga kelmaydi.

Asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyatining birinchi va asosiy sharti muayyan shaxs tomonidan boylikning real ravishda orttirilgan bo'lishidir. Fuqarolik-huquqiy ma'noda boylik tushunchasi nafaqat pul mablag'lari yoki moddiy mol-mulkni, balki xarajatlarni tejab qolish, mulkdan foydalanish natijasida olingan daromadlar kabi iqtisodiy foydalarni ham o'z ichiga oladi. Shu bois boylik orttirish faqat aktiv ko'rinishida emas, balki passiv foyda ya'ni majbur bo'lgan xarajatni amalga oshirmaslik shaklida ham namoyon bo'lishi mumkin.

O'zbekiston amaliyotida ushbu shart, ko'pincha, noto'g'ri bank o'tkazmalari bilan bog'liq holatlarda namoyon bo'ladi. Masalan, texnik xato yoki inson omili ta'sirida bir shaxsning bank hisobvarag'iga ortiqcha pul mablag'lari o'tkazilgan taqdirda, ushbu mablag'lar oluvchi shaxs tomonidan real boylik sifatida orttirilgan hisoblanadi. Bunday holatda, puldan foydalanilgan yoki foydalanilmaganidan qat'i nazar, boylik orttirish faktining o'zi majburiyatning yuzaga kelishi uchun yetarli asos bo'lib xizmat qiladi.

Asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyatining ikkinchi sharti orttirilgan boylik boshqa shaxs hisobidan yuzaga kelgan bo'lishidir. Bu shart jabrlanuvchi shaxsning mavjudligini nazarda tutadi, ya'ni bir shaxsning boyishi bevosita yoki bilvosita boshqa shaxsning mulkiy manfaatlariga zarar yetkazgan bo'lishi lozim. Agar boylik umumiy iqtisodiy faoliyat natijasida yoki o'z mablag'lari hisobidan orttirilgan bo'lsa, mazkur institutni qo'llash uchun asos bo'lmaydi. O'zbekiston sud amaliyotida ushbu shart majburiy ijro jarayonida ortiqcha undiruvlar bilan bog'liq nizolarda yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, ijro hujjati doirasida qarzdordan belgilanganidan ortiq summa undirilgan va ushbu mablag'lar undiruvchi yoki uchinchi shaxs foydasiga o'tkazilgan taqdirda, boylikning boshqa shaxs hisobidan orttirilganligi aniqlanadi. Bunday vaziyatda jabrlanuvchi aniq bo'lib, aynan uning hisobidan mulkiy nomutanosiblik yuzaga kelganligi sababli qaytarish majburiyati vujudga keladi.

Asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyatining eng muhim sharti – boylikni orttirish uchun huquqiy asosning mavjud emasligidir. Huquqiy asos deganda shartnoma, qonun, sud qarori yoki boshqa yuridik faktlar tushuniladi. Agar boylik ushbu asoslarga tayangan holda olingan bo'lsa, u asossiz deb hisoblanmaydi. Biroq huquqiy asos umuman

mavjud bo'lmagan yoki keyinchalik bekor bo'lgan hollarda mazkur shart bajarilgan deb e'tirof etiladi.

Amaliyotda bu holat, xususan, haqiqiy emas deb topilgan bitimlar yoki bekor qilingan shartnomalar bilan bog'liq munosabatlarda uchraydi. Masalan, tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnoma sud tomonidan haqiqiy emas deb topilganidan so'ng, ushbu shartnoma asosida amalga oshirilgan to'lovlar o'z huquqiy asosini yo'qotadi. Natijada, ilgari qonuniy ko'ringan boylik orttirish holati asossiz orttirilgan boylik sifatida baholanadi va qaytarish majburiyati vujudga keladi. Xuddi shuningdek, shartnoma bekor qilinganidan keyin amalga oshirilgan to'lovlar ham huquqiy asosdan mahrum bo'ladi.

Demak, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyati faqatgina boylikning mavjudligi emas, balki uning boshqa shaxs hisobidan va huquqiy asossiz orttirilganligi aniqlangandagina vujudga keladi. Ushbu shartlarning har biri majburiyatni asoslashda mustaqil ahamiyatga ega bo'lib, ular birgalikda fuqarolik-huquqiy mexanizmning ishlashini ta'minlaydi.

Asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyati har doim ham avtomatik tarzda vujudga kelavermaydi. Fuqarolik huquqida mazkur majburiyatning paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan holatlar mavjud bo'lib, ular, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1030-moddasida belgilangan istisnalar bilan bog'liq. Ushbu holatlarda boylik formal jihatdan huquqiy asosga ega bo'lmasa-da, qonun ularni qaytarish majburiyatidan chiqarib tashlaydi.

Amaliy nuqtai nazardan, bunday istisnalar majburiyatning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan. Xususan, ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya va shunga o'xshash to'lovlar vijdonan olingan bo'lsa hamda hisob-kitobda xatolik yoki qasddan noto'g'ri harakat mavjud bo'lmasa, ularni qaytarish majburiyati vujudga kelmaydi. Bu holatlarda qonun jabrlanuvchi manfaatidan ko'ra, to'lovni olgan shaxsning ijtimoiy himoyasini ustuvor deb biladi.

Shuningdek, amaliyotda da'vo muddati o'tganidan keyin bajarilgan majburiyatlar ham asossiz orttirilgan boylik sifatida qaytarilmaydi. Bu holat fuqarolik muomalasida barqarorlik va huquqiy aniqlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Aks holda, uzoq vaqt o'tganidan so'ng mulkiy munosabatlarni qayta ko'rib chiqish iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bank va moliya amaliyotida ushbu istisnalar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, mijoz tomonidan bank hisobvarag'iga tushgan mablag' vijdonan olingan va maqsadli ravishda sarflangan bo'lsa, keyinchalik texnik yoki tashkiliy sabablar bilan ushbu to'lov asossiz deb baholanishi majburiyatning avtomatik vujudga kelishini anglatmaydi. Bunday holatlarda sudlar nafaqat huquqiy asos masalasini, balki vijdonlilik, hisob-kitob xatolari va ijtimoiy oqibatlarni ham kompleks baholaydi.

Shu bilan birga, mazkur istisnolarni qo'llashda amaliy muammolar ham mavjud. Xususan, "vijdonan olingan" tushunchasining baholanishi ko'p hollarda subyektiv yondashuvga bog'liq bo'lib qolmoqda. Natijada, bir xil holatlarga nisbatan turli sud qarorlari qabul qilinishi mumkin. Bu esa majburiyatning vujudga kelishiga to'sqinlik qiladigan holatlarni qo'llashda sud amaliyotini birxillashtirish zaruratini ko'rsatadi. Demak, Fuqarolik kodeksining 1030-moddasida belgilangan istisnolar asossiz orttirilgan boylikni qaytarish institutining mutlaq emasligini, balki u adolat, vijdonlilik va ijtimoiy himoya tamoyillari bilan muvozanatlashtirilganligini amaliy jihatdan namoyon etadi.

Asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyati muayyan subyektlar o'rtasida vujudga keladi. Ushbu majburiyatning amaliy jihatdan to'g'ri qo'llanilishi, avvalo, munosabat ishtirokchilarining huquqiy maqomini aniqlash bilan bog'liq. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda mazkur majburiyat, odatda, kreditor va qarzdor o'rtasida shakllanadi hamda ularning o'zaro huquq va majburiyatlari orqali mulkiy nomutanosiblikni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Kreditor sifatida asossiz orttirilgan boylik natijasida mulkiy manfaatlari buzilgan shaxs ishtirok etadi. Bunday shaxs jismoniy yoki yuridik shaxs bo'lishi mumkin va uning hisobidan boshqa shaxs tomonidan boylik orttirilgan bo'lishi lozim. Kreditorning asosiy huquqi – asossiz orttirilgan boylikni natura shaklida yoki uning pul ekvivalenti orqali qaytarishni talab qilishdan iborat. Amaliyotda kreditor sifatida, ko'pincha, noto'g'ri bank o'tkazmasini amalga oshirgan mijoz, ortiqcha undiruvga duch kelgan qarzdor yoki bekor qilingan bitim asosida to'lov qilgan tomon maydonga chiqadi. Qarzdor esa huquqiy asos bo'lmagan holda boylikni qo'lga kiritgan shaxs hisoblanadi. Qarzdor sifatida ham jismoniy, ham yuridik shaxslar qatnashishi mumkin. Muhim jihati shundaki, qarzdorning boylikni qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan orttirganligi hal qiluvchi ahamiyatga ega emas; asosiy mezon – boylikning huquqiy asos bo'lmagan holda olinganligidir. Shu sababli, agar qonunda belgilangan istisnolar mavjud bo'lmasa, qarzdor o'z aybi yo'qligiga tayanib, qaytarish majburiyatidan ozod etilmaydi.

Bank ishtirokidagi munosabatlarda esa majburiyat subyektlari tarkibi yanada murakkablashadi va bir nechta variantda namoyon bo'lishi mumkin.

- Birinchi holatda, bank mijozning noto'g'ri topshirig'i asosida mablag'ni uchinchi shaxs foydasiga o'tkazgan bo'lsa, kreditor sifatida mijoz, qarzdor sifatida esa mablag'ni olgan uchinchi shaxs ishtirok etadi.

- Ikkinchi holatda, bankning texnik yoki tashkiliy xatosi natijasida noto'g'ri o'tkazma amalga oshirilgan bo'lsa, ayrim vaziyatlarda bankning o'zi ham majburiyat subyekti sifatida javobgar bo'lishi mumkin.

• Uchinchi holatda esa bank vositachi sifatida qatnashib, kreditor va qarzdor o‘rtasidagi hisob-kitoblarni ta’minlovchi subyekt rolini bajaradi.

Mazkur subyektlar tarkibini to‘g‘ri aniqlash asossiz orttirilgan boylikni qaytarish bo‘yicha da’vo kimga nisbatan qo‘zg‘atilishi, talab kim tomonidan ilgari surilishi va majburiyat kim zimmasiga yuklatilishini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aynan shu jihatlar keyingi bo‘limda bank sektorida, xususan Kapitalbank amaliyoti misolida, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish mexanizmlarini tahlil qilish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyatining vujudga kelishi ko‘pincha muayyan amaliy holatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu holatlar fuqarolik-huquqiy munosabatlarda mazkur institutning real ishlash mexanizmini namoyon etadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, asossiz boylik bilan bog‘liq nizolar asosan bank -moliya munosabatlari, majburiy ijro jarayonlari hamda shartnomaviy munosabatlarning bekor qilinishi doirasida yuzaga keladi.

Noto‘g‘ri bank o‘tkazmalari bilan bog‘liq holatlar O‘zbekiston amaliyotida eng ko‘p uchraydigan holatlardan biridir. Bank mijozining texnik xato, noto‘g‘ri rekvizit kiritish yoki avtomatlashtirilgan tizimdagi nosozlik natijasida boshqa shaxs hisobvarag‘iga pul mablag‘lari o‘tkazilishi asossiz orttirilgan boylik vujudga kelishiga olib keladi. Bunday vaziyatlarda mablag‘ni olgan shaxs huquqiy asosga ega bo‘lmagan holda boylikni qo‘lga kiritgan bo‘lib, qaytarish majburiyati yuzaga keladi. Amaliyotda ushbu holatlar ko‘pincha banklar orqali pretenziya tartibida yoki sud yo‘li bilan hal etiladi. Majburiy ijro jarayonida ortiqcha undiruvlar ham asossiz orttirilgan boylikni qaytarish institutining qo‘llanishiga sabab bo‘luvchi tipik holatlardandir. Ijro hujjati doirasida qarzdordan belgilanganidan ortiq summa undirilib, ushbu mablag‘ undiruvchi yoki uchinchi shaxs foydasiga o‘tkazilgan taqdirda, mulkiy nomutanosiblik yuzaga keladi. Bunday vaziyatda ortiqcha undirilgan mablag‘lar qarzdor hisobidan olingan asossiz boylik sifatida baholanadi va qaytarilishi lozim bo‘ladi.

Bekor qilingan yoki haqiqiy emas deb topilgan shartnomalar asosida amalga oshirilgan to‘lovlar ham amaliyotda keng uchraydi. Tomonlar o‘rtasida tuzilgan shartnoma keyinchalik sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan yoki taraflardan biri tashabbusi bilan bekor qilingan taqdirda, ushbu shartnoma asosida o‘tkazilgan pul mablag‘lari o‘z huquqiy asosini yo‘qotadi. Natijada, dastlab qonuniy ko‘ringan mulkiy munosabat asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyatiga aylanishi mumkin.

Bank xizmatlari bilan bog‘liq murakkab holatlarda esa bank, mijoz va uchinchi shaxs o‘rtasida ko‘p tomonlama munosabatlar shakllanadi. Masalan, bankning texnik yoki tashkiliy xatosi sababli noto‘g‘ri o‘tkazma amalga oshirilgan bo‘lsa, ayrim hollarda

bankning o‘zi ham nizoda mustaqil subyekt sifatida ishtirok etadi. Bu holatlar asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyatining subyektlarini aniqlash va mas’uliyatni taqsimlash masalasini murakkablashtiradi.

Yuqorida keltirilgan tipik holatlar O‘zbekiston amaliyotida asossiz orttirilgan boylikni qaytarish instituti faqat nazariy tushuncha emas, balki real iqtisodiy va huquqiy munosabatlarda faol qo‘llanilayotgan mexanizm ekanligini ko‘rsatadi. Aynan shu holatlar keyingi bo‘limda bank sektorida, xususan Kapitalbank amaliyoti misolida, mazkur institutning qo‘llanish xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish uchun muhim empirik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Barcha fikrlarni xulosalab aytganda, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyati fuqarolik huquqida mustaqil restitutsion majburiyat sifatida shakllanib, boylikning orttirilganligi, uning boshqa shaxs hisobidan yuzaga kelganligi va huquqiy asosning mavjud emasligi shartlari birgalikda mavjud bo‘lgandagina vujudga keladi. Mazkur majburiyatning paydo bo‘lishi ayb omiliga bog‘liq bo‘lmay, asosiy e‘tibor mulkiy nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratiladi. Shu bilan birga, Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan ayrim istisnolar ushbu majburiyatning mutlaq xarakterga ega emasligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston amaliyotida, ayniqsa bank va moliya munosabatlarida, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyatining vujudga kelish shartlarini to‘g‘ri aniqlash keyingi bosqichda uni amalga oshirish usullari va tartibini belgilash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023 (yangi tahrir).
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, amaldagi tahrir.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF–5464-son Farmoni “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF–6013-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining fuqarolik ishlariga oid qarorlari va sud amaliyotini umumlashtirish materiallari.

8. Rahmonqulov G‘.X. Fuqarolik huquqi. Umumiy qism. – Toshkent: TDYU, 2020.
9. Saidov A.X. Majburiyatlar huquqi. – Toshkent, 2019.
10. Yuldashev A.X. Fuqarolik huquqida majburiyatlar instituti. – Toshkent, 2018.
11. Ismoilov B.I. Fuqarolik huquqida asossiz boylikni qaytarish masalalari. – Toshkent, 2017.